



XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 2-may

VII-21-50-6-86-K/26

Uychi tumani

O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-sonli qonuni ijrosi yuzasidan tuman “Toza hudud” DM rahbari O.Mamasayitovning hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi “2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2916-sonli hamda 2018-yil 18-maydagi “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3730-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash yuzasidan “Toza hudud” DUK tuman filiali tomonidan 2026-yil 1-chorak mobaynida tumanda sanitar tozalash xizmatlarini ko‘rsatish tizimi bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

“Toza hudud” DM Uychi tuman filialida jami 16 ta maxsus chiqindi tashish texnikasi mavjud, ular tomonidan hozirda tumandagi mavjud 52 ta mahalladan 28 ta mahalla fuqarolar yig‘iniga xizmat ko‘rsatilib kelinmoqda. Xizmat qiladigan mahallalarda 92102 nafar aholi mavjud. “Toza hudud” DM tuman filiali tumanning umumiy aholisining 43 foiziga xizmat ko‘rsatish tashkillashtirilgan.

Tumandagi mavjud 47 ta maktab, 49 ta maktabgacha ta‘lim, tibbiyot birlashmasi va 50 ga yaqin yuridik tashkilotlar bilan xam shartnomalar imzolangan va “Toza hudud” DM o‘z xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Tumanda jami 1 ta maishiy chiqindi poligoni (Chortoq tumanida joylashgan) bo‘lib, umumiy maydoni 15 gektarni tashkil qiladi, hozirgi kunda poligonda 1 750 tonna maishiy chiqindilar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3730-son qaroriga asosan 2022 yilda viloyat “Toza hudud” davlat muassasasi tomonidan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan 12 dona chiqindi konteynerlari xarid qilindi. 2026-yilda “Toza hudud” Davlat muassasasiga tuman hokimligi tomonidan 35 dona, Davlat grandasi asosida 52 dona chiqindi konteynerlari olib kelinib, tuman mahallalariga o‘rnatildi.

Tumanning qamrovini va sifat darajasini oshirish maqsadida “Toza hudud” DM Namangan viloyat boshqarmasiga 2026-yilga yangi texnikalar bilan ta’minlash bo‘yicha talabnoma kiritilgan. “Toza hudud” DM tuman filiali rahbari O.Mamasayitovning 2026-yil 1-chorak mobaynida tumanda sanitar tozalash xizmatlarini ko‘rsatish tizimi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Toza hudud” Davlat muassasasi Uychi tuman filiali rahbari O.Mamasayitovning 2026-yil 1-chorak mobaynida tumanda sanitar tozalash xizmatlarini ko‘rsatish tizimi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti hamda O‘zbekiston Ekologik partiyasi deputatlik guruhi tomonidan o‘rganish axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin va qoniqarli deb topilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi “2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2916-sonli hamda 2018-yil 18-maydagi “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3730-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan “Toza hudud” DM Uychi tuman filiali tomonidan olib borilayotgan ishlarini yanada jonlantirish lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Uychi tumani ekologik, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi, “Toza hudud” DM Uychi tuman filiali (O.Mamasayitov) va mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga:

-Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida jamoatchilik nazoratini yuritish uchun tumandagi 53 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari, tashkilot va korxonalar rahbarlari alohida Ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlarini ularning faoliyati samaradorligini oshirish va davlat inspektorlari bilan doimiy ravishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- tumandagi xo‘jalik yurituvchi subektlar va aholi xonadonlarida hosil bo‘layotgan maishiy chiqindilarni “Toza hudud” DM tuman filiali tomonidan tashib chiqib ketilishi bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlarga to‘lov shartnomalarini rasmiylashtirish va to‘lovlarni amalga oshirish yuzasidan mahalla fuqarolar yig‘inlari a’zolari keng jamoatchilikka tushuntirish ishlarini olib borish;

- daraxt bargi xazonlari, chiqindilarni va bitumni maxsus qurilmasiz alanga oldirib yoqmaslik, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlamaslik, daraxtlarni noqonuniy kesmaslik bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlari faollari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.G‘ofurov), “Toza hudud” DM tumani filiali (O.Mamasayitov)ga:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-maydagi “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3730-sonli qarorining 11-bandi talabidan kelib chiqib, maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar, ya’ni “Toza hudud” DUK tuman filialiga tegishli bo‘lgan maxsus avtotransport vositalarini ularning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqa ishlarga jalb qilinishiga hamda maqsadsiz foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligini alohida nazoratga olish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-sentabrdagi “Sanitariya jihatidan tozalash sohasida xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun hududlarni birlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 765-sonli qarori ijrosini ta’minlash vazifalari topshirilsin.

5. “Toza hudud” DM tumani filiali (O.Mamasayitov)ga xizmat ko‘rsatadigan 53 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha chiqindi olib ketish grafigini tasdiqlab, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etish;

- xizmat ko‘rsatilmaydigan mahallalarni ham to‘liq qamrab olish bo‘yicha taklif kiritish vazifalari topshirilsin.

6. Hududlardagi aholi uchun joylashtirilgan chiqindixonalar holatiga noqonuniy aralashgan fuqarolarga nisbatan choralar ko‘rilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (M. Qambarov)ga aholining ekologik bilim va madaniyatini yanada yuksaltirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlarni keng jamoatchilikka yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Valiyev) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (A.G‘ofurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**HAKIMOVA
GAVXAR
ABDUQAXOROVNA**